

OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA INTELEKTINI RIVOJLANISHIGA O'ZARO ALOQADORLIGINI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Muhammadiyeva Hulkar Maxammadi qizi

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tuman

108-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Ushbu maqola oilaviy munosabatlarning bola intellektini rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Oila bolalar uchun ijtimoiylashuv jarayonining birinchi bosqichi bo'lib, uning aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada oila tarbiyasi, oiladagi o'zaro munosabatlar va oilaviy muhitning bola tafakkuriga ta'siri hamda intellektual rivojlanishda ularning o'rni batafsil tahlil etilgan. Oila ichidagi muvozanatli munosabatlar, ota-onaning tarbiya usullari va bola bilan bo'lgan muloqot uning psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, bolalarning ta'lim olishi, ijtimoiylashuvi va aqliy ko'nikmalarining shakllanishi oilaning o'zaro qo'llab-quvvatlashi va ishonchli muhit yaratishiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: oilaviy munosabatlar, bola intellekti, tarbiya, psixologik rivojlanish, aqliy qobiliyatlar, ijtimoiylashuv, oilaviy muhit, ota-onalar roli, bola rivojlanishi, tafakkur.

Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan choratadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e'tiborga qaramay, o'smir-yoshlar o'rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo'lmagan illatlarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bugungi

kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, o'smirlik yoshidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki shaxsning shakllanishida oiladagi muhit, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy nizolar oqibatida ro'y berayotgan holatlar, oilalarning barbod bo'lishi, millatlar, davlatlarning o'zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Tarixiy manbalarning dalillashicha, qadim-qadimdan oilaga muqaddas maskan, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlaydigan ijtimoiy institut sifatida qaralgan. Shu bois, oila va nikoh masalalariga, oilaviy turmush tartib-qoidalariga, er-xotinning vazifa va burchlariga alohida e'tibor berilgan. Oila turmushi bilan bog'liq muammolar uning farovonligi, farzandlar kamoloti, er-xotinning ezgu-istaklari va manfaatlariga mos hal etilgan. o'zbek xalqining oilaviy turmush xos tarixiy taraqqiyot davomida orttirgan tajribasi uning muammolarini hal qilish va turmush tarzini maqsadga muvofiq tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi oila muammolarining qator qirralarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar, xususan, D. Mayers, V. Kvinn, F. Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o'rganilgan.

Olimlar tomonidan to'plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan o'zbek muhitiga to'g'ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odati, an'ana va milliy qadriyatlari boshqasini kiga mos kelmaydi. Muhimi, O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo'lgan ma'lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni xududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish zarur. Ta'kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarohim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg'iloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos

Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O'zbekiston olimlari M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G'. G'oziyev, Sh.R. Baratov, M.Mamatov, B.M. Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o'rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta'sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan ko'tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Tanlangan mavzuimiz huddi mana shuning uchun ham dolzarbdir.

Bugungi kunda Respublikamizda oila va nikoh masalalari davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining chiqarilishi fikrimizning yana bir masalasi barcha zamonlarda dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Yosh oilalar sohiblari o'z munosabatlarini qanday yo'lga qo'yishlari kerakligini tushunishlari uchun ma'lum bir vaqt va kerakli psixologik shart-sharoit zarurdir. Er-xotin nafaqat bir-birini sevishi kerak, balki oilaviy munosabatlarni qurish asosida barkamol oilani barpo etishlari talab etiladi. Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.Shoumarov, M.G.Davletshin, E.G'oziyev, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, X.Karimov, F.R.Ro'ziqulov va boshqalar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G'.B.Shoumarov o'z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushishi muhim rol o'ynaydi deb ko'rsatib beradi. U o'zaro qovushuvlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo'linishni e'tirof etadi :

Biologik psixologik sotsial qovushuv

E.G'ozievning oilaviy hayot muammolari sohasida olib borgan tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, oilaviy munosabatlar turli negiz: iqtisodiy, mafkuraviy, hissiy-irodaviy, ahloqiy-aqliy, qarindosh-urug'chilik, yaqinlik va do'stlik- birodarlik asosida quriladi. Ana shu negizlar baquvvat oilada er-xotin totuvligi, oila barqarorligi, oilaning baxti va farovonligi ta'minlanadi. Oila inson hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan oilaviy munosabatlar va muloqotda inson ehtiyojlari amalga oshiriladi, ya'ni: ma'lum bir guruhga mansublik tuyg'usini beruvchi insoniy aloqalarga bo'lgan ehtiyoj; o'zini-o'zi tasdiqlash zarurati, bu his-tuyg'ular va uning boshqa odamlar uchun ahamiyati haqida haqiqiy dalillar; mehrga bo'lgan ehtiyoj, bu o'zaro iliqlikni his qilish imkonini beradi; shaxsning o'ziga xosligi, individualligi hissini shakllantiradigan o'z-o'zini anglash zarurati; namuna bo'ladigan orientatsiyaga bo'lgan ehtiyoj. Qadim zamonlardan beri odamlar oiladagi munosabatlar, bolalarni tarbiyalash tajribasini to'plashdi va kristallashtirdilar. Ushbu maqolaning maqsadi oilada bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga asosiy falsafiy va psixologik-pedagogik yondashuvlarni yoritib berishdir. Falsafiy va psixologik adabiyotlarda bola-ota-ona munosabatlarining mazmuni va mazmunini tushunishning bir qator nazariy yondashuvlari shakllangan. Z.Freydning klassik psixoanalizida ota-onalarning bolaning aqliy rivojlanishiga ta'siri markaziy o'rinni egallaydi. Ota-onalar (ayniqsa, ona) - bu bola eng erta va eng muhim erta tajribaga ega bo'lgan odamlardir. Ota-onalarning bolaga g'amxo'rlik qilish haqidagi odatiy kundalik tashvishlari sezilarli psixologik ta'sir ko'rsatadi. Chaqaloqning hayotiy ehtiyojlarini qondirishning to'liqligi va yo'li bog'lanish, ishonch, hayot uchun faollik asosiga aylanadi. Psixoanalitik yondashuvning vakili E.Erikson hayot davomida shaxsning shakllanish jarayonini tahlil qilib, har bir shaxs uchun psixoseksual emas, balki psixososyal ziddiyatlarni hal qilish zarur degan xulosaga keldi. Sog'lom shaxsni shakllantirishning asosi - avtonomiya (o'zini tuta bilish, mustaqillik hissi), dunyoga asosiy ishonch hissi (ichki ishonch), tashabbus (o'z faoliyatini saqlab qolish uchun muammolarni hal qilish qobiliyati). ijtimoiy va motorli) - ota-onaning tegishli mavqei (ishonchlilik, ishonch, mustaqillikni rag'batlantirish), bola tomonidan boshqariladigan makonning ko'payishi sharoitida yotqiziladi. Oilaviy

munosabatlarnig eng xarakterli jihati bu oilaviy nizolardir. Oilaviy nizolar va uning kuchayishi "mevasi" bo'lgan ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham oilaviy nizolar hamda ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori jalb qilinib kelinmoqda. Bu kabi muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganib kelmoqdalar. Oilaviy nizolar haqida so'z borar ekan, tabiiy bir savol tug'iladi. Inson esini taniganidan ota-onaga, atrofdagilarga, tabiatga mehr qo'yib, ulg'ayganda sevib-sevilib, ezgu niyatlar bilan oila quradi-yu, nega oila qurgandan keyin o'zaro munosabatlarda nizo-janjallar ro'y berishi tabiiydir. Oila muhitidagi o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o'zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo'lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma'naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an'analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog'liqligi asoslab berilgan. Oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, uning byudjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo'lib, ro'zg'or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o'rin tutadi.

Ko'pchilik muvaffaqiyatli oilada tarbiya topgan yoshlar, o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun o'z ota-onasi oilasini ideal qilib oladilar. Shunday ideal oila qurishni istagan yoshlarning esa turmushlari kutganlaridek kechmasa, moslashish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar oldida esankirab, oila qurishda adashganliklaridan noliy boshlaydilar. Shu sababdan ham er-xotin munosabatlarini faqat yaxshi tomondan ko'rsataverish emas, balki, bu munosabatlarda uchraydigan, real hayotda mavjud psixologik holatlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina yoshlarimizda

oilaviy hayot haqida nisbatan adekvat tasavvur shakllanadi. Yosh oila yuzaga kelganidan so'ng unda er-xotin munosabatlarining rivojlanishiga xalaqit qiladigan ko'plab ijtimoiy-psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar ham mavjud bo'ladi. Yoshlarga bu psixologik omillar haqida aniq va asoslangan tushunchalar berish lozim bo'ladi. Bu kabi oilaviy nizolarning oldini olishga asos bo'ladi. Yana bir jihat esa, oilada oila a'zolari o'rtasida bir-birini tushunishning yetishmasligi, hamda ko'pincha muloqot jarayonida bir-birini tinglashni, anglashni bilmaslikdan nizolar kelib chiqadi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy turmush masalalari, oila-nikoh muammolari, undagi o'zaro munosabatlar bo'yicha tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilmasin, hali ham ularning yetarli darajadagi yechimi masalasi mavjud emas. Oilaviy munosabatlar va uning muhim jihatlari, uning asoschilari bo'lmish er-xotin va unda voyaga yetayotgan farzandlar kamoloti, oiladagi shaxslararo munosabatlar va unda yuzaga keladigan nizolar shakllanish jarayonini ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tashkil etadi. Hozirgi sharoitda oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishda oilaviy psixoterapiya vositalari va usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, ular oilaning me'yorli faoliyat ko'rsatishiga, undagi ziddiyatlarning turlari va ularning shakllanish sabablarini o'rganishga, profilaktikasini tashkil etishga hamda shaxslararo munosabatlar muvofiqligini ta'minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. G'.B.SHoumarov, I.O.Haydarov "Oila psixologiyasi" o'quv qo'l. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. 2008 y. "SHarq" nashriyoti.

2. E.G'oziyev, M. Xolmuhammedov, X. Ibrohimov. Psixologiya metodologiyasi.- T.: "Sharq",2002.-123 b
- 3.T..Sodiqova "Kuyov bo'lish ilmi". T.:2005.
5. T. Malik "Kelinlar daftariga"T.: "Davir-press,2009
6. Tursun Oy "Nozik savol".T.: "Yangi nashr"-2007